



## INKLYUZIV BANDLIK MOHIYATI VA O'ZBEKISTONDAGI TUB ISLOHOTLAR

*Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li -  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
"Fundamental iqtisodiyot" kafedrasи doktaranti*

**doi** [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss4/a15](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss4/a15)

**Annotatsiya.** Inson kapitalimi rivojlantirishga e'tibor qaratilgan har bir davlat iqtisodiyoti qisqa vaqt ichida o'zini yuksalish siklida ko'rishi muqarrardir. Ushbu jarayon albatta inklyuziv bandlikni ta'minlash orqali ro'y betadi. Shu sababli ushbu maqolada inklyuziv bandlik mazmun mohiyati ochib berildi. Xorijiy va mahalliy olimlar fikri o'rganib chiqilgan holda atamaga muallif ta'rifi berildi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yoritib o'tildi. Bular jumlasiga O'zbekiston Respublikasi qonuni, Prezidentimiz qaror va farmonlarini kiritishimiz mumkin. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy himoyaga ta'minlagan holda taraqqiyot yo'li belgilanganligi jamiyatimizda har bir shaxs munosib ish o'rnini toppish va orzularini ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarning duch kelayotgan muammolari va uning yechimlari ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv bandlik, ishsizlik, ijtimoiy ehtiyojmantlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, imtiyozlar, ijtimoiy himoya, inklyuzivlik, inson kapitali.

### И КОРЕННЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ СУЩНОСТЬ ИНКЛЮЗИВНОЙ ЗАНЯТОСТИ

*Усманов Зиядулла Ульмас угли -  
ТГЭУ, кафедра "Фундаментальная экономика"*

**Аннотация.** Экономика каждой страны, в которой основное внимание уделяется развитию человеческого капитала, неизбежно окажется в цикле подъема в краткосрочной перспективе. Этот процесс, безусловно, происходит за счет обеспечения инклюзивной занятости. Поэтому в данной статье раскрыта сущность содержания инклюзивного трудоустройства. Авторское определение термина дано с учетом мнения зарубежных и отечественных ученых. Были освещены социально-экономические реформы, проводимые в нашей республике. К ним можно отнести Закон Республики Узбекистан, постановления и Указы Президента. То, что в новом Узбекистане намечен путь развития с обеспечением социальной защиты, позволит каждому человеку в нашем обществе найти достойное место работы и осуществить свои мечты. Также были разработаны проблемы, с которыми сталкиваются люди с ограниченными возможностями, и их решения.

**Ключевые слова:** инклюзивная занятость, безработица. Социальные нуждающиеся, лица с ограниченными возможностями, льготы, социальная защита, инклюзивность, человеческий капитал.

### THE ESSENCE OF INCLUSIVE EMPLOYMENT AND FUNDAMENTAL REFORMS IN UZBEKISTAN

*Usmonov Ziyodulla Ulmas ugli -  
TSEU, "fundamental economics" department*

**Annotation.** It is inevitable that the economy of each state, which focuses on the development of human capital, will see itself in a short period of time in the cycle of its rise. This process is definitely bettered by ensuring inclusive employment. For this reason, the essence of inclusive employment content was revealed in this article. With the opinion of foreign and domestic scientists studied, the term was given the definition of an author. The socio-economic reforms carried out in our Republic were highlighted. These include the law of the Republic of Uzbekistan, decisions and decrees of our President. The fact that in the new Uzbekistan a path of development is established with the provision of social protection makes it possible for each person in our society to find a suitable place of work and realize their dreams. Problems faced by individuals with disabilities and its solutions have also been developed.

**Key words:** inclusive Employment, Unemployment, social needy, persons with disabilities, benefits, Social Protection, inclusivity, human capital.

**Kirish.** Jahom mamlakatlari uzoq yillik tajribalaridan kelib chiqib iqtisodiy rivojlanishning fundamental asosi bozor iqtisodiyoti hamda uning asosiy mexanizmlarini e'tirof etishmoqda. Bizga ma'lumki, ushbu iqtisodiyot ko'plab afzallikkleri bilan birgalikda o'ziga xos ziddiyatlariga ham ega. Bu salbiy jihatlarga misol tariqasida, jamiyat a'zolari daromadlaridagi tengsizlikning kuchayib borishi va aholining tabaqlanishi bilan bog'liq. Bunday iqtisodiyot har qanday yuksak darajada rivojlanmasin daromadlar tengsizligini bartaraf qila olmaydi,

faqat uni ma'lum darajada yumshatish mumkin[1]. Ushbu jarayonda, ayniqsa, aholining ijtimoiy zaif qatlami o'z ichiga olib, ishsizlik yoki daramodlarining ehtiyojlarini qondirishga yetmaslik holati kuzatiladi. Bu toifadagi aholi guruhlarini iqtisodiy faol hamda yuqori daromadlilar qatoriga qo'shish uchun davlat sektori tomonidan inklyuziv bandlik ta'minlanishi zarurdir.

Inklyuziv bandlik tushunchasi aslida nima ma'no anglatadi? Ushbu iborani to'liqroq anglashimiz uchun inklyuziv so'zining lug'aviy ma'nosiga

muroajat qilamiz. Inklyuziv so'zi inglizcha "inclusive", so'zidan kelib chiqqan bo'lib "hammasini qamrab olgan, barchasini ichiga olgan" degan ma'nioni anglatadi. Dunyo mamlakatlarning olimlari nazdida nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga intigratsiyalashuvi hamda barcha bilan teng imkoniyatda bo'lislari uchun maxsus shart-sharoitlar yaratilganlik darajasini inklyuziv bandlikning asosiy aspekti sifatida keltirishmoqda. Hozirgi kunda ushbu so'z keng ko'lamma qo'llanilmoqda. Masalan, inklyuziv ta'lim, inklyuziv jamiyat, inklyuziv biznes, iqtisodiyotning inklyuziv o'sishi kabi va boshqa ko'plab ko'rinishda foydalanimoqda.

Bizning fikrimizcha inklyuziv bandlik deganda jamiyatning turli qatlamlarini ya'ni jinsi, irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan qatiy nazar teng mehnat sharoitlari orqali ish bilan ta'minlash tushuniladi. Bunday aholi toifalariga nogironligi bo'lgan shaxslar, pensiyanerlar ya'ni qariyalar qatlami, ayollar, mahkumlar va jazo muddatini o'tab bo'lgan fuqarolar, voyaga yetmagan yoshlar, mehnat resurslarning potensial qismi misol bo'ladi. Doimo bu aholi guruhlari o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib alohida mehnat sharoitlariga muhtojdirlar. Ish beruvchilar tomonidan esa bu kabi shart-sharoitlar yaratish aksariyat hollarda yuqori xarajatlar talab qilganligi sababli salbiy qarashlar orqali qabul qilinadi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Jahan iqtisodchilari tomonidan inklyuziv bandlik iborasi qariyb 13 yil avval keng iste'molga kiritilgan bo'lib, bular jumlasiga Anne Leymat, Laila Onu, Gedik Cansu, Жданова И.В. hamda L.B. Mojeykinalarning fikrlarini ko'rib chiqamiz. Shuningdek, Avstraliya hukumatining 2012-2022-yillarga mo'ljallangan inklyuziv bandlik dasturi va jahon bankining izohlariga to'xtalib o'tamiz.

Anne Leymat inklyuziv bandlikka faqatgina nogironlar toifasi bilan cheklanmasligini ta'kidlab quyidagicha izohlagan: "Inklyuziv bandlik barcha faoliyatni anglatib bu shaxsga individual imkoniyatidan kelib chiqib ish o'rniga ega bo'lish va yaxshi to'lanadigan ishni tasavvur qilish imkonini beradi. Inklyuziv bandlik sektoriga nafaqat nogironlar balki aholining barcha zaif qatlari uchun munosib ish haqqini to'lashga targ'ib qiladi"[2].

Laila Onu Laila Onu ta'kidlashiga qaraganda inklyuziv bandlikning obyekti sifatida nogironligi mavjud shaxslarni nazarda tutadi va shunday degan "Inklyuziv bandlik eng qiyin jarayon bo'lib ko'plab to'siqlar mavjud: ekologik yetishmovchilik, inklyuziv bandlik foydasiga milliy siyosatning yo'qligi, noto'g'ri qarashlar, inklyuziv ta'limning yetishmasligi va aqliy zaif odamlarning ijtimoiy ko'nikmalari ning yetishmasligi"[3].

Jahon iqtisodchilari tomonidan Inklyuziv bandlikni ta'minlashning asosiy negizi sifatida inklyuziv biznes e'tirof etiladi. Turkiyalik olim Gedik Cansu ushbu atamaga quyidagicha ta'rif bergan:

"Inklyuziv biznes – bu kam ta'minlangan odamlarga muhim mahsulot va xizmatlarni taklif qiladigan yoki ularning ta'minot zanjirlarida ishchilar, yetkazib beruvchilar yoki tadbirdorlar sifatida kam ta'minlangan odamlarni o'z ichiga olgan biznes modelari"[4].

Inklyuziv ish bilan ta'minlash V.I. Jdanova hamda L.V. Mojaykinalarning fikricha murakkab jarayon bo'lib, inklyuziv ish bilan ta'minlashni tushunishda faqatgina to'siqsiz muhit (panduslar, liftlar) emas, inklyuziv ish bilan ta'minlashning boshqa tez-tez e'tibordan chetda qoladigan jihatlari mavjuddir. Shunday qilib mualliflar "inklyuziv ish bilan ta'minlash jismoniy jihatdan qulay ish o'rinalini yaratish sifatida belgilanadi, nogironligi bo'lgan xodimlar uchun, shuningdek, bunday xodimlarning jamoaga birlashtirish, ular bilan teng munosabat, psixologik va pedagogik ta'sir amaliyoti tashkilotlar jamoalari va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ularni shakllantirish maqsadida mehnat bandligi g'oyasining ustuvorligi haqidagi jarayondir"[5].

Avstraliya hukumatining 2012-2022-yillarga mo'ljallangan inklyuziv bandlik to'g'risidagi hujjatda quyidagi fikrlar aytib o'tilgan "Inklyuziv bandlik - bizning qarashimizga ko'ra nogironligi bo'lgan odamlar har doim eng yaxshisini olishlariga, natijalar va yaxshi tanlov qilish uchun qo'llab-quvvatlanishlariga ishonch hosil qilishlaridir"[6].

Jahon banki iqtisodiy o'sishda inklyuzivlik ahamiyatini va ushbu jumlanı quyidagicha ochiqlagan: "Inklyuzivlik - iqtisodiyotda kamsitilmaydigan shartlarning mavjudligi, shu jumladan, butun aholining ishlab chiqarish, taqsimlash jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlari va iste'mol qilish, shuningdek, ijtimoiy infratuzilmaga kirish umumiyligi aholi va uning alohida guruhlari uchun munosib hayot sifatidir"[7].

Inklyuziv bandlik iborasining O'zbekistonda evalutsiyasi yaqin 5 yillikka borib taqalib, dastlab inklyuziv ta'lim ya'ni nogironlarni umumta'lim maktablarida integratsiyalashuv jarayonlari va so'nggi yillarda inklyuziv biznes, inklyuziv o'sish kabi ma'nolarda qo'llanilmoqda. Xususan, nogironlar muommolari doimo diqqat markazida ekanligi haqida Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev: "Nogironlarga ta'lim berish va ularni ishga joylashtirishning amaldagi tizimi zamonaliv talablarga javob bermaydi. Nogironlarni mehnat faoliyatiga jalb etish o'rtacha 2 foizni tashkil qiladi, bu esa mas'ul idoralarning ushbu sohadagi ishi qoniqarsizligidan dalolat beradi"[8], - deb ta'kidlalagan.

Inklyuziv ish bilan ta'minlash iqtisodiy inklyuziv o'sish tushunchasi bilan to'g'ri proporsional bog'lanishga ega. Dunyo davlatlari o'rtasida muntazam Jahan iqtisodiy forumi tomonidan e'lon qilinib boruvchi Inklyuziv rivojlanish indeksi (Inclusive Development Index - IDI) e'tiborga loyiqdir. Ma'lumot o'rnida shuni aytishimiz joizki, ushbu indiks bo'yicha rivojlangan iqtisodiyotga ega davlat-

lardan Norvegiya, Luksemburg, Shveytsariya, Islandiya, Daniya, Shvetsiya, Niderlandiya, Avstralaliya, Yangi Zelandiya, Avstriya kabi TOP reytingdan joy olgan. O'zbekiston iqtisodiyotining inklyuziv o'sish yo'nalishlarini tadqiq qilgan T.Sadullayev inklyuziv bandlik uchun tayanch hisoblangan inklyuziv o'sishga quyidagicha ta'rif keltirgan: "inklyuziv o'sish – mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining sifat jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan tushuncha hisoblanib, muayan mamlakat aholisining turmush sharoitlarini oshirish orqali, ularning tabaqalanishi bilan kurashish hamda tashqi samaralarning ular hayot derajasiga ta'sirini baholash imkonini beradi"[9].

Inklyuziv o'sishning ahamiyati haqida M.Asqarova quyidagi fikrni ta'kidlagan: "Keng ma'noda inklyuziv o'sishning asosiy natijalari inson rivojlanishining eng muhim mezonlari: farovonlik, adolat va kengayish inson imkoniyatlari, uning tovarlarni ishlab chiqarish va tarqatishda faol ishtirokidan" [10].

Shuningdek ta'kidlashimiz joizki, inklyuziv bandlikni ta'minlash uchun davlat bosh islohotchi sifatida ma'suliyatni o'z zimmasiga olishi talab etiladi. Shu sababli ijtimoiy boshqaruvda samaradorlikka zamin bo'luvchi siyosat yuritish zarur. Ushbu holat yuzasidan A.Abduhalilov shunday deydi: "Ijtimoiy boshqaruv samaradorligining eng muhim ko'r-satkichi bu inson huquqlari kabi asosiy ehtiyojlarni qondirishdir ya'ni ularga oziq-ovqat va uy-joy, asbob-uskunalar, yuqori sifatli ta'minotga bo'lgan ehtiyoj ichimlik suvi va sog'liqni saqlash, yashash narxi, daromadlarni farqlash koyeffitsiyenti darajasi, xavfsizlik, mehnat resurslari sifati, jinoyatchilik darajasi, bandlik, shuningdek, o'z hayotini tartibga solishni tanlash imkoniyati kiradi" [11].

Inklyuziv bandlik bo'yicha Abdulla Abduhalilov hamda Dilmurod Yusupovlar tomonidan O'zbekistondagi nogironligi bo'lgan shaxslar bilan suhbatlar o'tkazish asosida, ular ochiq mehnat bozoriga kirishda duch kelayotgan ko'plab to'siqlar aks etgan tadqiqot ishida "Inklyuziv bandlik jarayonida nogironlar duch keladigan muhim to'siq

O'zbekistonda qulay jismoniy muhitning yo'qligi hisoblanadi. Jismoniy nuqsonlari bo'lgan va harakatchanligi cheklangan ishtirokchilar nogiron ishga joylashsa ham, Toshkent shahridagi jamoat infratuzilmasi obyektlarining mavjud emasligi ularning nogiron bo'limganlar bilan teng ravishda mehnat qilishga, xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishiga imkon bermasligini ta'kidladilar" [12], - degan fikrlar aytil o'tilgan. Shuningdek, Qobiljon Isayev nogironlarni mehnat bozoriga intigratsiyalashuvi uchun inklyuziv biznesni rivojlanishga davlat va jamiyat manfaatlariga qay tariqa to'g'ri proportsional keliishi haqida shunday degan: "davlatlar uchun inklyuziv biznes umumiy ijtimoiy-iqtisodiy o'sish va rivojlanishga samarali yondashuvni o'zida mujassam etadi. Va nihoyat, aholi uchun inklyuziv biznes yaxshi hayot, ijtimoiy inklyuzivlik, bandlik va barqaror turmush manbaidir" [13].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Inson kapitalini rivojlanirishni maqsad qilgan har qanday davlat eng avvalo inklyuziv ish o'rinnarini yaratishi va jamiyatdagi barcha qatlarning o'z xususiyatlaridan kelib chiqib ichki imkoniyatlarini taqdim etish uchun adolatli ijtimoiy jamiyat qurishi lozim. Ushbu tadqiqot ishida inklyuziv bandlikni xorijiy va mahalliy olimlar fikrlari tahliliy o'rganilib muallif tomonidan uning mohiyati ochib berildi va unga ta'rif ishlab chiqildi. Ushbu jarayonda iqtisodiy tahlil, analiz, sintiz, guruhlash va ilmiy abstraksiya metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida inklyuziv bandlik muammolariga yechim sifatida taklif etilayotgan normativ hujjatlar yoritib berildi.

**Tahlil va natijalar.** Yuqorida biz bir nechta olimlar hamda tashkilotlarni inklyuziv bandlikka bergen ta'riflarini ko'rib chiqdik hamda ushbu tushuncha jahon iqtisodiyotida juda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlamoqchimiz. Aynan ushbu iqtisodiy tushunchani milliy iqtisodiyotimiz uchun muhim dolzarblik kasb etishini hisobga olgan holda davlat tomonidan birinchi navbatda bandligi ta'milanishi amalga oshirilishi lozim bo'lgan aholi qatlamni quyidagi jadvalda keltirildi.

### 1-jadval


**Davlat aholining ayrim toifalarini ishga joylashtirishda qo'shimcha kafolatlar beradi.  
Aholining ushbu toifalariga quyidagilar kiradi [14]**

1-toifa	2-toifa
Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynaladigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'limgan shaxslar, shu jumladan, 14 yoshga to'limgan bolalari va nogiron bolalari bor yolg'iz ota, yolg'iz onalar hamda ko'p bolali ota-onalar	O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oly o'quv yurtlarining davlat grantlari asosida ta'lim olgan bitiruvchilari
3-toifa	4-toifa
nogironlar va pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar	O'zbekistan Respublikasi Qurolli Kuchlaridan muddatli xarbiy xizmatdan bo'shatilganlar
5-toifa	6-toifa
odam savdosidan jabrlanganlar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko'ra tibbiy yo'sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar

Inklyuziv bandlik mazmun mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, bu atama nogironligi bo'lgan shaxslarning ish bilan bandligi bilan birgalikda turli ijtimoiy, psixalogik, siyosiy va turmush sharoitidan kelib chiqib to'siqlarga duch kelayotgan aholi qatlaming bandligi tushuniladi. Muxtasar qilib aytganda "inklyuziv bandlik" - turli xil ijtimoiy kelib chiqishga mansub bo'lgan shaxslar, jumladan, nogironlar, turli etnik, irqiy, diniy, ijtimoiy mavqega

mansub shaxslar va ijtimoiy ehtiyojmand aholi guruhlari uchun, muvaffaqiyatga erishish, shaxsiy rivojlanishga imkon yaratadigan, imtiyozlar va teng raqobat muhitini o'z ichiga oladigan iqtisodiy yo'nalishdir.

Inklyuziv bandlik darajasi odatda iqtisodilyot rivojlanganlik holatini ifodalaydigan ko'rsatkich hisoblanadi ushbu tushuncha tarifidan kelib chiqib quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:



### 1-rasm. Inklyuziv bandlikning ta'rifidan yuzaga kelgan mantiqiy chizma[15]

Respublikamizda inklyuziv so'zi keng ko'lama da qo'llanilishidan avval ushbu sohada chuqur islo-hotlar qilib kelinmoqda va bu ijtimoiy himoya, kam ta'minlanganlikka qarshi kurashish, ijtimoiy siyosat kabi yo'nalishlarda keng ko'lamba ishlar amalga oshirilgan. Ushbu tushunchaning iste'molga kirib kelishi turli aholi toifalarini bir so'z bilan qamrab olish imkonini berdi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda inklyuziv bandlikni ta'minlash borasida sezilarli chora tad-birlar olib borilmoqda. Xususan, xotin-qizlarni huddular bo'yicha mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga monomarkazlarda qisqa muddatlarda qayta o'qitish, ularni kasanachilik dasturlari orqali ish bilan ta'minlash. Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar tadbirkorlik faoliyatini boshlashlari uchun davlatimiz tomonidan 10 million so'm miqdorida subsidiya ajratilayotganligi e'tiborga sazavordir. Har bir xodim pensiya yoshiga yetgandan so'ng ish haqi bilan birga yoshga doir pensiyani ham olishga haqliligi hamda xodimlarni pensiya yoshiga (xotin-qizlar uchun 55 yosh erkaklar uchun 60 yosh) to'lganliklarini sabab qilib mehnat shartnomasini bekor qilishga hech kimning haqqi yo'qligi huquqiy asos bilan belgilab qo'yildi. Inklyuziyaning tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan mahkumlarni ish bilan ta'minlashni rag'batlantirish uchun tadbirkorlik subyektlariga turli xil soliq imtiyozlarining mavjudligi va jazoni o'tab chiqqan fuqorolarni bandligini ta'minlash maqsadida ish o'rnlari davlat tomonidan kvotalanib qo'yilgandir. Shuningdek, vo-yaga yetmagan yoshlar va talabalar qatlami uchun

maxsus sharoitlar ostida mehnat qilish huquqi mehnat kodeksida belgilab qo'yilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, inklyuziv bandligi ta'minlangan shart bo'lgan aholi toifalaridan nogironligi bo'lgan shaxslar o'rtasida ishsizlik darajasi juda yuqori va munosib ish topish, mavjud ish o'rnlarini saqlab qolish, infratuzilmaviy muammolar og'ir bosim ostida ro'y beradi. Ushbu vogelikni hisobga olgan holda tadqiqotda asosiy e'tibor nogironligi bo'lgan shaxslar hayotida mavjud muammo va uning yechimlari o'rganildi.

Mamlakatimizda oxirgi 5 yil ichida qabul qilingan quyidagi normativ huquqiy hujjatlar "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"[16], "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani (Nyu-york, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida"[17] va "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"[18]gi Prezident farmoni nogironlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy huquqlarini amalga oshirishdagi baziviy asos rolini o'tamoqda.

Misol tariqasida 82-sonli Prezidentimiz farmonida keltirilgan yo'nalishlar e'tiborga loyiqlidir. Yuqoridagilarga qo'shimcha qilgan holda nogironlar bandligini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi meyoriy hujjatlarni izohlab o'tishimiz joizdir:

- 2020-yilda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni huquqlari to'g'risida" 641-sonli O'RQ qabul qilindi hamda ushbu qonunning 7-bobi nogironlarni mehnat qilishi va bandligi haqida bo'lib ularning huquqlariga atroflicha to'xtalib o'tilgan.

**O'zbekistonda 2023-yil 1-oktabrdan boshlab nogironlarni inklyuziyasi uchun  
Prezidentimiz farmonida keltirilgan ustuvor yo'nalishlar[19]**

Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'larining xarajatlari yo'nalishlari	
1-yo'nalish	"Muruvvat" va "Saxovat" internat-uylarida, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, urush va mehnat faxriyalar uchun sanatoriylar hamda pansionatlarda ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish
2-yo'nalish	aholini protez-ortopediya buyumlari va rehabilitatsiya texnik vositalari bilan ta'minlash
3-yo'nalish	protez-ortopediya buyumlari va rehabilitatsiya texnik vositalari ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlari va loyihiborini moliyalashtirish
4-yo'nalish	nogironligi bo'lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish markazlari faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish
5-yo'nalish	nogironligi bo'lgan shaxslarning imtiazli hamda bepul statsionar davolanishini ta'minlash
6-yo'nalish	nogironligi bo'lgan shaxslarni o'quv, didaktik va boshqa muqobil materiallar bilan ta'minlash
7-yo'nalish	nogironligi bo'lgan shaxslarni madaniy tadbirlar va sportga jalb etish
8-yo'nalish	nogironligi bo'lgan shaxslarning transport, oziq-ovqat mahsulotlari hamda dori-darmon vositalarini sotib olish xarajatlarini qisman qoplash
9-yo'nalish	nogironlarni ish bilan ta'minlovchi korxonalarini subsidiyalash
10-yo'nalish	nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan ish joylarini tashkil etish xarajatlarini qoplash
11-yo'nalish	nogironligi bo'lgan shaxslar uchun teng imkoniyatlar va qulay muhit yaratishga qaratilgan dastur va chora-tadbirlarni moliyalashtirish

• 2021-yilda "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani (Nyu-york, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi 695-sonli O'RQining qabul qilinishi davtamiz meyoriy-huquqiy hujjatlar konvensiyaga muvofiqligini ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda.

• Prezidentimizning 2021-yil 21-dekabrdagi 57-sonli qarorida nogironlarga munosib ish o'rinnini topishga, ularni mehnat bozoriga to'siqlarsiz kirib borishini ta'minlash va inklyuziv bandlikka o'z hissasini qo'shishi uchun tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirish maqsadida ko'plab imtiaz hamda subsidiyalar ajratilgan.

• 2022-yil 18-aprelda PQ-209-sonli qarorda turli ustuvor yo'nalishlar bilan birgalikda quyidagilar ta'kidlangan: "Nurli maskan maktablari o'quv-chilari uchun axborot texnologiyalari, xorijiy tillar, kasb-hunar va tadbirkorlikni o'rgatish bo'yicha o'quv kurslari tashkil etiladi"[20].

• Shuningdek, 2023-yil 23-mart sanasidagi 122-sonli hukumat qarori qabul qilindi unga ko'ra "Nogironligi bo'lgan shaxsning va tarkibida nogironligi bo'lgan shaxs bor oilaning elektron onlayn-aukcion orqali yer uchastkasini sotib olish bilan bog'liq xarajatlarini qoplab berish tartibi to'g'risida" nizom tasdiqlandi. "Nizomga ko'ra, yer uchastkasini aukcion orqali sotib olish xarajatlaridan kelib chiqqan holda, oilasi tarkibida nogironligi bo'lgan shaxslar sonidan qat'iy nazar, BHMning 100 baravarigacha (30 mln so'mgacha) miqdorda bir martalik to'lov ajratiladi".[21].

2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida inklyuziv bandlikni asosiy obyekti bo'lgan nogironligi mavjud shaxslarni qo'llab-quvatlash chora-tadbirlarini kuzatishimiz mumkin. Ular jumlasiga 4-yo'nalish 66-maqsadida keltirilgan chora-tadbirlarga quyidagilarni sanab o'tamiz:

- Imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash bo'yicha Milliy dastur ishlab chiqish.

- Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan har bir nogironligi bo'lgan shaxslarni ishlashti mumkin bo'lgan kasblari to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron tarzda "Bandlik xizmati" axborot tizimiga integratsiya qilish.

- Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan tashkilotning xodimga ish haqi hisoblanganligi va daromad solig'i to'langanligi to'g'risidagi ma'lumotlar hamda Yagona milliy mehnat tizimidagi mehnat shartnomasini ro'yxatdan o'tkazish.

- 12 ming nafar nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash.

- nogironligi bo'lgan shaxslarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish uchun kasbiy ta'lim muassasalariga imtiazlar berish.

- nogironligi bo'lgan shaxslarni tadbirkorlikka jalb etish va o'zini o'zi band qilishi uchun imtiazli kreditlar, subsidiyalar ajratish.

**Xulosa va takliflar.** Inklyuziv bandlikni rivojlanishidan manfaatdor bo'lgan asosiy aholi qatlami bu nogironlar hisoblanadi. Odadta nogironlik guruhiga ega bo'lgan ko'plab mehnatga layoqatli yoshdagagi fuqarolar har doim ham osonlikcha ish topa olmaydilar yoki o'z ishlarini saqlab qololmaydilar. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: nogironlarga mos mehnat sharoitlari yaratilmaganligi sababli ish joylarining mavjud emasligi, ish beruvchining nogironlikni vaj qilish orqali ishga qabul qilishdan bosh tortishi, ishga talabgorlarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari, shuningdek, uning malakasi yetarli emasligi va boshqalar.

Inklyuziv bandlikni ta'minlash asosida har bir davlat bozor iqtisodiyoti shavqatsizligi qurbanli bo'lgan nogironlarni mehnat bozorida erkin iqtisodiy

faoliyatini kafolatlaydi. Jumladan, O'zbekistonda bu borada yuqorida ta'kidlaganimizdek huquqiy asos mavjuddir. O'zbekistonda yechimini kutayotgan muammolar talaygini bo'lib, ushbu taklif va tavsiyalari asosida ish yuritsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Nogironlikning tibbiy modelidan ijtimoiy modeliga o'tishning dolzarbliyi ya'ni jamoatchilik ongida muhrlanib qolgan "ular mehnatga layoqatsiz" degan salbiy streotiplarni bartaraf etish.

- Qonunchilikda belgilangan 3 foiz zaxiralarlangan ish joylarining amaliyotdagi samarasini bo'yicha monitoring yuritish zarur. Ushbu kvotalangan ish o'rirlari haqidagi ma'lumotlar keng miqyosda

nogironligi bo'lgan jamoalar orasida tarqatishga ko'maklashuvchi tizim yaratish zarur.

- Nogironligi bo'lgan yoshlarni kasbiy mahoratlarni oshirish uchun yetakchi korxonalar tomonidan malakaviy amaliyot o'tashga imkon beruvchi tizim yaratish lozim.

- Nogironlarni kasbga tayyorlash uchun boshlang'ich sinfni keyingi yildan boshlab rejalashtirish tizimini ishlab chiqish.

- Inklyuziv bandlik jarayoniga bevosita ta'sir qiluvchi shaharsozlik, transport infratuzilmasini takomillashtirishning xalqora konvensiyaga muvofiq ravishda amaliy yechim yaratish zarurdir.

### ***Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati***

1. B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov, Iqtisodiyot nazariyasi.// darslik, „Barkamol fayz media”, Toshkent – 2017, 157-b, jami 784 -b.
2. Anne Leymat, Inclusive employment, Technical Resources Division June, 2011. 11-b.
3. Laila Onu Laila Onu, Promoting inclusive employment: a Romanian experience.// Open Society Institute, 2009, 2-b.
4. Gedik Cansu. Barqaror rivojlanish uchun inklyuziv biznes modellari //Kalit jurnali// "Samaradorlik fan va texnologiya" bosh boshqarmasining oylik, mart, 2017-yil. <https://www.mikadoconsulting.com/tr/surdurulebilir-kalkinma-icin-kapsayici-is-modelleri/#:~:text=Kapsay%C4%B1c%C4%B1%20i%C5>
5. Жданова И.В. Содействие инклюзивному трудуоустройству выпускников вузов из числа инвалидов: концептуальные аспекты и опыт / И.В.Жданова, Л.Б. Можейкина // Известия РГПУим. И. Герцена – 2020. – № 195. 82–88 betlar.
6. Australian government, Inclusive Employment 2012-2022 A vision for supported employment,// [fahcsiafeedback@fahcsia.gov.au](mailto:fahcsiafeedback@fahcsia.gov.au), 2012, 1-b.
7. Inclusive Green Growth. The Pathway to Sustainable Development. International Bank for Reconstruction and Development / International Development Association or The World Bank. 2012.
8. Prezident far moyishi, 5006-son. Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. //Lex.uz, 01.08.2017-y.
9. Sadullayev T.H. O'zbekiston iqtisodiyotining inklyuziv o'sishini ta'minlash yo'nalishlari,// avtoreferati, Toshkent – 2023, 12-b.
10. Asqarova M. Необходимость обеспечения инклюзивного экономического роста страны, // Иқтисодиётда инновациялар, 4-jild, 4-son, Toshkent - 2021. 22-b.
11. Abduxalilov A.A. повышения эффективности государственного управления в условиях модернизации общества (на примере процессов занятости),// dissertatsiya, Toshkent – 2018, 79 – 80 betlar.
12. Yusupov D. Abdukhalilov A. Barriers to disability-inclusive employment in Uzbekistan.// journal of International Development, 2022, 34-son, 1048 – 1068 betlar.
13. Isayev Q. Har bir inson – bebaho kapital. // Xalq so'zi, 2023, 34-son. 4-b
14. Muallif tomonidan tuzilgan. //asos: G.K. Abduraxmonova, Mehnat iqtisodiyoti, o'quv qo'llanma, innovatsion rivojlantirish nashriyoti, T.: – 2020. 138-b.
15. Muallif tomonidan tuzilgan.
16. O'RQ. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida, //lex.uz, 641-son, 15.10.2020-y.
17. O'RQ. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani (nyu-york, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida, // lex.uz, 695-son, 08.06.2021-y.
18. Prezident farmoni. Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lg'a qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida, //lex.uz, 82-son, 01.06.2023-y.
19. Sh. Mirziyoyevning 01.06.2023-y. 82-soni farmoniga asosan muallif tomonidan tuzildi.
20. Prezident qarori 209-son. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruchchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan makkab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida, //Lex.uz, 18.04.2022,
21. Vazirlar Mahkamasi qarori 122-son. Nogironligi bo'lgan shaxsning va tarkibida nogironligi bo'lgan shaxs bor oilaning elektron onlayn-auksion orqali yer uchastkasini sotib olish bilan bog'liq xarajatlarini qoplab berish tartibi to'g'risida //Lex.uz, 23.03.2023.